

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARINING KOGNITIV FAOLIYATNINI MEHNAT TARBIIYASI VOSITASIDA SHAKLLANTIRISHDAGI QARASHLARI

Yuldasheva Dilshoda To'liqinova,
Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi
ORCID ID:0009-0008-9855-3514

Annotatsiya. Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasi va bilish faoliyati nafaqat Sharq mamlakatlarida balki, butun dunyoda birinchi o'rinda turuvchi masaladir. Chunki, har bir yosh avlod shu mamlakatning kelajagi. Maktabgacha davrda erta egallangan tasavvurlari ularning kelajakdagi amaliy faoliyatlari natijaviyligi garovidir. Bolalarning kognitiv faoliyati dastlabki shakllanish davri, uning hatti-harakatlarining oqibatlarini hissiy oldindan sezishning paydo bo'lishi, o'zini o'zi anglash, tajribalarni murakkablashtirish va xabardorlik, yangi his-tuyg'ular va motivlar bilan boyitish, hissiy-ehtiyojlar sohasi murakkablashadigan davrdir.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, kognitiv faoliyat, affektiv faoliyat, mehnat tarbiyasi, tarbiyalanuvchi, maktabgacha yosh, ta'lim tarbiya.

ВОЗМОЖНОСТИ ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ НА ФОРМИРОВАНИЕ ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНИКОВ ЧЕРЕЗ ТРУДОВОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

Юлдашева Дилшода Толкиновны,
преподаватель Ферганского государственного университета

Аннотация. Воспитание и познавательная деятельность детей дошкольного возраста является приоритетным вопросом не только в странах Востока, но и во всем мире. Потому что каждое молодое поколение – это будущее этой страны. Воображение, приобретенное в раннем дошкольном периоде, является залогом эффективности их будущей практической деятельности. Период начального формирования познавательной деятельности детей, появления эмоционального предвкушения последствий своих действий, самосознания, сложности переживаний и осознаний, обогащения новыми чувствами и мотивами, усложнения сферы эмоциональных потребностей.

Ключевые слова: дошкольное образование, познавательная деятельность, аффективная деятельность, трудовое воспитание, воспитанник, дошкольный возраст, воспитание и обучение.

POSSIBILITIES OF EASTERN THINKERS FOR FORMING THE COGNITIVE ACTIVITY OF PRESCHOOL CHILDREN THROUGH LABOR EDUCATION

Yuldasheva Dilshoda Tolkinovna,
senior teacher at Fergana State University

Annotation. The upbringing and cognitive activity of preschool children is a priority issue not only in the countries of the East, but throughout the world. Because every young generation is the future of this country. Imagination acquired in the early preschool period is the key to the effectiveness of their future practical activities. The period of the initial formation of children's cognitive activity, the emergence of emotional anticipation of the consequences of their actions, self-awareness, the complexity of experiences and awareness, the enrichment of new feelings and motives, the complication of the sphere

of emotional needs.

Key words: preschool education, cognitive activity, affective activity, labor education, pupil, preschool age, education and training.

Kirish. Jahon maktabgacha ta'lim tizimida kichik yoshdan boshlab ta'lim va tarbiya berishning eng optimal usullarini shakllantirish, bolalarni maktabga sifatli tayyorlash uchun ta'lim dasturlari, innovatsion pedagogic texnologiyalarni qo'llash metodikasini takomillashtirish bola shaxsida individuallikni tarbiyalash texnologiyalari amaliyotga tatbiq etilmoqda. Bugungi jamiyat taraqqiyoti talablaridan kelib chiqqan holda har bir bolani kognitiv faollik ruhida tarbiyalash, zamon talablariga javob beradigan mustaqil fikrlovchi, kreativ, mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ta'lim tizimini rivojlantirishni diagnosik prognoz etish bo'yicha tizimli amaliy loyihalar bajarilmoqda. Mamlakatimizda maktabgacha yoshidagi bolalarda kognitiv tusunchalarni shakllantirishda alohida yondashuv va metodik tayyorgarlikni talab etadi. Ya'ni, tarbiyalanuvchilarda kognitiv faoliyatni o'stiruvchi pedagogic texnologiyalarni yaratish va shu maqsaddagi kompleks ta'lim muhitni hosil qilish dolzarblik kasb etadi.

Bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bu bola shaxsini rivojlantirish, bolada shaxsiy fazilatlarni shakllantirish. Yurtboshimiz Sh. M. Mirziyoyevning tashabbusi bilan maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning birinchi bo'g'ini sifatida siyosat darajasiga ko'tarildi va bu sohada tizim shakllantirildi. Bu esa o'z navbatida yosh avlodga puxta ta'lim-tarbiya berish, qulay shart-sharoitlar yaratish, ularni ma'nan va jismonan yetuk insonlar qilib tarbiyalash ma'suliyatini beradi.

Demak, maktabgacha ta'lim tizimi yosh avlodni dastlabki tasavvurlarini shakllantirish jarayoni bo'lib, bola hayoti davomidagi ta'lim-tarbiya jarayonining 70%ni shu davrda egallaydi hamda qolgan 30% o'zini o'zi tarbiyalash jarayonida shakllanadi. Shunday ekan, maktabgacha ta'lim tizimida bolalarning ta'lim-tarbiya jarayonidagi barcha egallagan tasavvurlarini amaliy faoliyatda bevosita foydalanishlarini ta'minlashni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2018-yil 14-fevral kuni maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilish va rivojlantirish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar natijadorligi tahliliga bag'ishlab o'tkazilgan video selektor yig'ilishida davlat rahbarimiz: "Bolalar tarbiyasi jarayoniga o'z ishini puxta biladigan, malakali va har bir bolaga individual yondasha oladigan pedagog-kadrlarni jalb qilgan holda, ularni go'dakligidan ongi va tafakurini to'g'ri shakllantirib bormasak, kelajakda yuksak saviya, bilim va ma'naviyatga ega bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalash qiyin bo'ladi", -deb uqtirdi. Tarbiyalanuvchilarning sog'lom va barkamol bo'lib voyaga yetishi ilg'or ta'lim-tarbiya texnologiyalari negizida mehnat tarbiyasi va kasbga yo'naltirishni amalga oshirishga bevosita bog'liq. Mazkur g'oyaning ildizi chuqur va nihoyatda keng qamrovga ega bo'ib insoniyatning ilg'or vakillari, mutafakkirlar va zamondosh olimlar tomonidan asoslangan pedagogik-psixologik nazariya va konsepsiyalarga tayanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim tarbiya berish barcha zamonlarda ham jamiyat taraqqiyotining asosi, yoshlarni hayotga tayyorlashning eng muhim vositasi bo'lib kelgan.

Bizga meros sifatida qolgan ilmiy badiiy asarlarda ham mehnatning turli ko'rinishlari namuna sifatida bayon etilgan. Dunyo sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Zamahshariy, Al Xorazmiy, Farobiy, Alisher Navoiy kabi buyuk ajdodlarimiz mehnat tufayli bemisl yutuqlarga erishganlar hamda yosh avlodni mehnatni sevishga, uni qadrlashga undaganlar.

Xususan, Ibn Sino (980-1037) kichik yoshdagi bolaning sezgirlik quvvati katta

odamga teng kelishini ta'kidlab, unda narsalarni bilishni ularning sabablarini anglash orqali hosil qilish lozimligini asoslab bergan. Kattalarvaota-onalargayoshavlodgabilma gannarsasini o'rgatish, ularning voyaga yetishiga ko'maklashish vazifasini ilgari suradi. U "Urjuza" asarida insonni hayvondan farqlovchi ikki jihatdan biri uning nutqi ravon, shirintilli, tiyran va ziyrak bo'lishida va ikkinchisi kasb-hunarga ega bo'lishi ekanligini ta'kidlab o'tgan. Yana birasari "Tadbiri manozil"da esa oila muhitida bola tarbiyasida qo'llash muhim bo'lgan jarayonlarni tizimli ravishda ko'rsatib bergan.

Insonlarni kamolotga yetishining dastlabki mezoni sanalgan bilim egallashga da'vat etib Ibn Sino: "Bilimsiz kishilar johil bo'ladi, yetuk bo'lmagan va ular haqiqatni bilolmaydigan kishilar" deydi. Ibn Sino "bilim berishda yengilidan murakkabiga qarab borish orqali bilim olish, olib boriladigan faoliyatlar bolalar yoshiga mos bo'lishi, bolaning qiziqishi va qobiliyatlarini inobatga olish, ta'limni jismoniy mashqlar bilan birga olib borish kerakligini aytib, so'zga chechan kishi, tili shirin, fikri ravshan kishi"- deb uqtiradi.

Ibn Sino ilmiy merosida e'tibor qaratishimiz muhim bo'lgan yana bir jihati ta'lim jarayonini aqliy, jismoniy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasining birligini alohida ta'kidlab o'tgan.

Shaxsning fikrlari va tasavvurlari qanchalik tiyran va ravshan bo'lishi albatta, maktabgacha davrda egallangan dastlabki bilim tasavvurlariga bog'liq bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar dastlabki tasavvurlarini shakllantirishda ularning mehnat faoliyati, ya'ni o'zlari egallagan bilim malakalarini amaliy faoliyatda qo'llay olishlari bilan xarakterlanadi.

Buyuk alloma Abu Nasr Farobiy (873-950) bolalarni ilm olish va mehnatga yo'naltirishda ikki usuldan foydalanish zarurligini ta'kidlaydi, avvalo, bolalarda sehrli so'zlar(salomlashish, barakalla, ofarin, raxmat, tashakkur, minnatdorman, kechiring,) sehrli iboralar (sizni yaxshi ko'raman, men sizga ishanaman), rag'batlantirish va ruhlantirish orqali mavjud layoqatni qobiliyat darajasiga olib chiqish, so'ngra esa ularni amaliy mehnat faoliyatiga bevosita tadbiiq etish. Farobiy bilimdon, ma'rifatli yetuk inson obrazini tasvirlar ekan, "Har kimki ilm xikmatini o'rganmagan bo'lsa, uni yoshligidan boshlasin, sog' – salomatligi yaxshi bo'lsin, yaxshi ahloq va odobi bo'lsin, so'zining uddasidan chiqsin, yomon ishlardan saqlangan bo'lsin, barcha qonun – qoidalarni bilsin, bilimdon va notiq bo'lsin, ilmli va dono kishilarni xurmat qilsin, ilm va ahli ilmdan mol-dunyosini ayamasin, barcha mavjud moddiy narsalar tog'risida bilimga ega bo'lsin".

Farobiyning ushbu fikrlari hozirgi zamonaviy hayotimizda o'z aksini topgan. Chunki, ilmga tikilgan investitsiya eng samarali ekanligini bugun butun dunyo etirof etadi, Shunga ko'ra mamlakatimizdagi ta'limga bo'lgan e'tibor ham bunga yaqqol misol bo'la oladi. Bizning ajdodlarimiz kelajakni avvaldan ko'ra olganliklari- bu albatta ularning tinimsiz mehnati va egallagan bilimlari natijasi deya olamiz.

Butun olam tan olgan geodeziya va minerologiya olimi Abu Rayhon Beruniyning (973-1048) bilimlarni egallash yo'llari haqidagi fikrlari hozirgi davr uchun ham dolzarbdir. Beruniy nafaqat minerologik olim, balki ta'lim-tarbiyaga oid falsafiy ilmiy merosi bugungi kunda yosh avlod tarbiyasida dasturil amal vazifasini bajarmoqda. Bolaga bilim berishda ularni zeriktirmaslik, uzviylik, izchillik va hokazolarni e'tiborga olish kerakligini uqtiradi. Beruniy inson kamolotida uch omilirsiyat, muhit va tarbiya muhumligini ta'kidlaydi. Bu hozirgi zamon pedagogikamaliyotida ham asrlardavomida tasdiqlanganfaktsifatidatadbiqetiladi.

Yana bir buyuk alloma yuksak axloq sohibi Alisher Navoiy (1441-1501), oilaga baxt va shodlik keltiruvchi farzandning kamol topishi va tarbiyasiga katta e'tibor bergan va tarbiyaning majburlash usullarini qattiq qoralagan.

Mutaffakirning farzand tarbiyasi borasidagi qarashlarini shunday izohlash mumkin.

Navoiy mehnatga nisbatan muhim ijtimoiy burch sifatida yondashish, vijdonan va halol mehnat qilishni yuqori o'ringa qo'ygan.

“Navoiy boylikni ikki yol bilan topish mumkinligini aytadi: birinchi yo‘l – o‘z mehnati bilan boylik to‘plash va yig‘ish. Bunday boylikni u qo‘llab quvvatlagan. Ikkinchi yo‘li – o‘g‘rilik, ta‘magirlik va zo‘rluk hisobiga boylik orttirishdir. Navoiy bunday boylik orttirishga keskin qarashi chiqqan va qoralagan(63).

Mutafakkirlar farzand tarbiyasida bolalarning dastlabki bilish ya‘ni kognitiv faoliyatlarini osonidan murakkabiga qarab, majburlamasdan, yosh hususiyatlarini hisobga olgan holda shakllantirishga katta ahamiyat qaratganlar.

Natija va muhokama. Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasi va bilish faoliyati nafaqat Sharq mamlakatlarida balki, butun dunyoda birinchi o‘rinda turuvchi masaladir. Chunki, har bir yosh avlod shu mamlakatning kelajagi. Maktabgacha davrda erta egallangan tasavvurlari ularning kelajakdagi amaliy faoliyatlari natijaviyligi garovidir. Bolalarning kognitiv faoliyati dastlabki shakllanish davri, uning hatti-harakatlarining oqibatlarini hissiy oldindan sezishning paydo bo‘lishi, o‘zini o‘zi anglash, tajribalarni murakkablashtirish va xabardorlik, yangi his-tuyg‘ular va motivlar bilan boyitish, hissiy-ehhtiyojlar sohasi murakkablashadigan davrdir.

Kognitiv faoliyat shaxsning ijtimoiy ahamiyatli faoliyati bo‘lib, turli xil faoliyat turlarida maktabgacha yoshdagi bolalar orasida shakllanadi. Ensiklopediya va lug‘atlarda “faoliyat” tushunchasi aksariyat hollarda “faoliyat” shaxsning o‘ziga xos xususiyati bo‘lib, u shaxsning faoliyatga bo‘lgan munosabatida namoyon bo‘ladi: tayorgarlik holati, mustaqil faoliyatga intilish, uni amalga oshirish sifati, maqsadga erishishning maqbul usullarini tanlash. Kognitiv faoliyat katta maktabgacha yoshdagi bolalarning yangi bilim, ko‘nikma, ichki qat‘iyat va ma‘lum bir bilimlarni to‘plash uchun turli xil harakat usullaridan foydalanish zaruriyatiga bo‘lgan qiziqishini ifoda etadi. Kognitiv faoliyat – dunyo ob‘ektlari va hodisalari haqida to‘liq ma‘lumotga intilish. Kognitiv faoliyat kognitiv rivojlanish asosida shakllanadi va vujudga keladi.

Kognitiv rivojlanish- bu atrof-muhit ta‘siri ostida, shuningdek, maxsus tashkil etilgan o‘quv va tarbiya ta‘siri va bolalarning o‘z tajribasi bilan bog‘liq bo‘lgan fikrlash jarayonlarida yuz beradigan sifat va miqdoriy o‘zgarishlarning yig‘indisi.

Kognitiv rivojlanish muammosi, maktabgacha yoshdagi bolalarning bilim faolligini shakllantirishga samarali ta‘sir ko‘rsatadigan shart-sharoitlar ko‘p yillar davomida psixologik va pedagogik tadqiqotlarda yetakchi o‘rinlardan birini egallab kelgan.

Maktabgacha yoshda bo‘lgan bolalar o‘zlarining hamda hamkorlarining xatti-harakatlari, ichki va tashqi omillarini farqlay olishi, insonning ichki hayotini anglashga qodir bo‘ladi. Maktabgacha yoshdagi bolaning o‘zi haqidagi fikrlarni bayon qilishga imkon beradi, ikkala holda ham bolaning o‘zi haqidagi tasavvuri ularni ko‘pincha ortiqcha baholash bilan bog‘liq ekanligi qayd etiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar o‘zlarini do‘stlari bilan taqqoslashga harakat qiladi, lekin ba‘zida taqqoslash natijasida bolaning o‘z tengdoshidan yaxshiroq ekanligiga intilishi ko‘zga tashlanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv faoliyat bilan bir qatorda affektiv faoliyat ham mavjud bo‘lib, bu emotsional qadriyatlar majmui hisoblanadi.

Emotsional qadriyatlar (affektiv) - o‘ziga shaxs sifatida, o‘z faoliyatiga bo‘lgan munosabati. Bu tarkibiy qism, boshqacha aytganda, o‘z-o‘ziga baho berish tizimiga o‘zini baholash tizimi (inglizcha-self-esteem) kiradi. Kognitivni affektivdan farqi. Affektiv jihatdan ko‘rib chiqasiz. Affektiv jihatdan tarbiyachi bolaga ta‘lim-tarbiya berish jarayonida unga pedagogik ta‘sir etish orqali kognitiv faoliyatini shakllantiradi.

Affektiv (lot. Affectus- ruhiy hayajon, ehtiros) – turli tashqi yoki ichki ta‘sirlar asosida tez paydo bo‘lib, qisqa muddatli, aksariyat hollarda “portlash” tarzida bo‘ladigan kuchli

ifodalanadigan hissiy holat (motivatsiya, o'ziga ishonch, qo'rqinch, g'azab, dahshat va boshqalar), shaxs uchun muhim hayotiy vaziyatlarning tez o'zgarishi bilan bog'liq ichki tug'yon va keskin xarakterli o'zgarish tarzida namoyon bo'ladi. Fiziologik affekt holatida kishi o'z hatti-harakatlarini idora eta olishi, keyinchalik barcha voqealarni xotirasida saqlab qolishi mumkin.

Xulosa. Farzandning go'zal xulqli bo'lib tarbiya topishini faqatgina ota-onaga bog'lab qo'yish to'g'ri emas. Bu borada ustozning ham o'rni beqiyos.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'tgan ulug' zotlarga ergashgan holda biz ham farzandlarimiz ta'lim-tarbiyasiga e'tiborli bo'lishimiz lozim. Ayniqsa, ularning tarbiyasida ajdodlarimizning buyuk hayotlari hamda yozib qoldirgan ma'naviy meroslari muhim o'rin kasb etadi. Kelajak avlod yetuk va komil inson bo'lib shakllanishida kognitiv faoliyatni to'g'ri rivojlantirish uchun barcha zarur shart-sharoitlarni tashkil qilish, bolaga mehnat tarbiyasini erta yoshdan singdirishi muhimdir.

Yuqorida tilga olingan tarbiya shakllarini amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri – avvalo ota-onalarning ma'naviy bilim saviyasini oshirish, ularda sog'lom tafakkur va zamonaviy dunyoqarashni shakllantirishdir. Bu esa har bir ota-onaning o'z farzandi oldidagi, el-yurt oldidagi burchini to'g'ri anglashni, insonning dunyoga kelishi va kamol topib rivojlanishiga oid bo'lgan qonuniyatlarni puxta bilishni, oilaviy munosabatlar doirasida milliy urf-odat va an'alarimizning eng nodirlarini turmushga singdirish orqali farzandlarimizda milliy qadriyatlarimizga bo'lgan mehr-muhabbatni uyg'otishni, shuningdek ularni har tomonlama mustaqil fikrlaydigan, mahnat malakalari shakllangan hamda kognitiv faoliyatni amaliyotga tadbiq eta oladigan avlod qilib tarbiyalashni taqozo etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni. – T., 2019. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 17.12.2019 y., 03/19/595/4160-son.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-son Qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 10.05.2019 y., 07/19/4312/3106-son.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 391-son Qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 14.05.2019 y., 09/19/391/3120-son.

Qodirova F., Sh.Toshpo'latova, N.Qayumova, M.A'zamova Maktabgacha pedagogika. –T.: Tafakkur. 2019. – 200 b.

5. G'ulomov J. Bilish jarayoni faolligi va neyropedagogik tadqiqotlar talqini. // Pedagogika. – Toshkent, 2015. - №4. – B.41-47.

6. Musaev U. Integratsiya – ta'lim jarayonini optimallashtirishning muhim prinsipi // Xalq ta'limi. – Toshkent, 2002. – №6. –B.100

7. Abdullaeva B.S. Fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari. (ijtimoiy-gumanitar yo'nalishdagi akademik litseylarda matematika o'qitish misolida). Ped. fan. dok. ...diss. – Toshkent, 2006. – B. 264

8. Abdullaeva Sh.A., Axatova D.A., Sobirov B.B., Sayitov S.S. "Pedagogika" O'zRFA "Fan" nashriyoti. 2004.173-bet

9. Abu Ali Ibn Sino. Tib qonunlari. 1-6 jild.- Toshkent.1980

10. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri / Tuzuvchi M.Mahmudov. – Toshkent, Meros, 1993. – B.185.

11. Abu Rayhon Beruniy. Feruza (Javohirlar haqida naql va hikoyatlar). – Toshkent: Abdulla Qodiriy,1993. – 96 b

12. Djuraeva B. R. va boshq., Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoni sifati va samaradorligini takomillashtirishning pedagogik tizimi. Monografiya. – Toshkent: Lesson press, 2017. – 160 b.